

Qabul qilindi: 01.05.2025

Chop etildi: 30.06.2025

UDK: 811.512.133'373.2

OGAHIYNING “RIYOZU-D-DAVLA” ASARIDAGI ERONIY ASOS APPELLYATIV ONOMASTIK BIRLIKLARI

Axmedova Marhabo, Urganch davlat universiteti Axborot xizmati bo'limi boshlig'i, “O'zbek tilshunosligi” kafedrasida katta o'qituvchisi, (PhD)

IRANIAN ASYOS APPELLATIVE ONOMASTIC UNITS IN OGHIY'S WORK “RIYOZU-D- DAVLA”

Akhmedova Marhabo, Head of the Information Service Department, Urgench State University, Senior Lecturer, Department of “Uzbek Linguistics”, (PhD)

ИРАНСКИЕ ОСНОВЫ АПЕЛЛЯТИВНЫХ ОНОМАТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ОГАХИ “РИЁЗУ-Д-ДАВЛА”

Ахмедова Мархабо, заведующая отделом информационной службы Ургенчского государственного университета, старший преподаватель кафедры “Узбекское языкознание”, (PhD)



<https://orcid.org/0000-0002-4791-3427>

e-mail:

marhabo.ahmedova18@gmail.com



Annotatsiya: Maqolada Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning tarixiy asarlaridan biri bo'lgan “Riyozu-d-davla” asarida eroniy appelyativlar asosida hosil bo'lgan onomastik birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, Ogahiy, onomastika, toponim, apellyativ, eroniy toponimlar, kolorizm.

Abstract: The article provides a comparative analysis of onomastic units formed on the basis of Iranian names, which are found in one of the historical works of Muhammad Riza Agehi “Riyazu-d-dawla”.

Keywords: linguistics, Agehi, onomastics, toponym, appellative, Iranian toponyms, colorism.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ ономастических единиц, образованных на основе иранизированных наименований, которые встречаются в одном из исторических произведений Мухаммада Риза Огахи “Риязу-д-давла”.

Ключевые слова: лингвистика, Огахи, ономастика, топоним, апеллятив, иранские топонимы, колоризм.

KIRISH. Onomastika tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida shakllangandan beri asosiy masalalardan atoqli otlarning yasash xususiyatlari yoki yasalmasligi masalasi bilan bog'liq. Tilshunos Z.Do'simov bu boradagi muhim nazariy qarashlarni ilgari surgan¹. Shuning uchun ko'pgina ishlarda

yasama toponimlar deb talqin qilingan holatlarda yasash joy nomlarining o'ziga emas, balki nom uchun asos apellyativlik xos ekanini e'tiborga olish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bu mezonni barcha

¹ Дўсимов З. Топонимлар ясаши масаласига доир. //Ўзбек тили ва адабиети. – Тошкент, 1980. – № 2.

onomastik birliklarga nisbatan qo'llashimiz mumkin. Masalan, *bo'yrachi* etnonimi asosi *bo'yra+chi* komponentlaridan iborat ekanini hisobga olib, uni sodda yasama etnonim (yoki shu etnonim bog'liq holda yuzaga kelgan *Bo'yrachi* qishlog'ini sodda yasama toponim) deya olmaymiz. Chunki *bo'yrachi* so'z sifatida onomastik birlik bo'lguniga qadar shakllangan va mana shu shakl hamda ma'no uning etnonimga aylanishi uchun asos bo'lgan. Xuddi shuningdek, O'zbekistonning qaysidir hududida yangi qurilgan aholi maskani (ehtimol, davlat tomonidan qurilib, Navro'z bayramida ochilishi rejalashtirilgani uchun) *Navro'zobod* deb nomlansa, uni eroniy qatlamga mansub toponim deb talqin qilish to'g'ri emas. *Navro'zobod* toponimi haqida asos apellyati eroniy so'z(lar) deyishdan ortiq biror nima deyish mushkul. Shuning uchun onomastik birliklarning tarkibiy tahlilida ham, etimologiyasi haqida gapirganda ham apellyati turkiy asosli, apellyati eroniy asosli, apellyati arabiy asosli deb talqin qilish to'g'ri bo'ladi. Mana shu sababli ayrim olimlar, jumladan, etimologiya va onomastika bog'liqligini u qadar muhim sanamaydilar. Masalan, V.A.Nikonov fikricha, "Etimologiya – agar u nomlarni tug'dirgan sabablarni inkor qilsa, hech narsa bo'lmasdan qoladi. Bu sabablar esa hamma vaqt va faqat tarixiy sabablardir". D.Yuldashev V.A.Nikonov ko'p bora takrorlagan "Kishi ismlarining qo'llanishi uchun uning ma'nosi – etimologiyasi mutlaqo kerak emas" yoki "Kishi ismi uchun etimologiya zaruriy emas" – degan so'zlarini "Olimning fikricha, ism uchun uning apellyativ asosidagi ma'no emas, apellyativ atoqli otga ko'chgandan keyingi ma'nosi muhim²", – deb talqin qiladi. Haqiqatan, Xorazmning nima uchun shunday nomlangani uning viloyat yoki vohani anglatishini bilishimiz, tushunishimiz uchun hech qanday ahamiyati yo'q. Yoki Oqtoshning tog'li joy ekanini nomiga qarab bilib o'tirganimiz yo'q. Sababi u yerga borgan boshqa til sohibi ham uni tog'li hudud ekanini bilib oladi. Xuddi shu kabi *Oksford*³ deganda ho'kizlar kechuvini emas, mashhur ziyo maskani bo'lgan shaharni tushunamiz. Lekin bu onomastik birlik bilan uning apellyativini umuman bir-biriga aloqador sanamaslik uchun asos ham, isbot ham bo'la olmaydi. Shuning uchun

onomalar tabiatidan kelib chiqib, ko'pgina ishlarda, jumladan, toponimlar yasalishi yoki toponimlar etimologiyasi tarzidagi ifodalarni *toponimlar asos apellyativi yasalishi* yoki *toponimlar asos apellyati etimologiyasi* shaklida berish bilan masala mohiyatiga bir qadar yaqinlashadi.

Biz onomastik birliklar tarixiy-etimologik xususiyatlarini asos apellyativlar e'tibori bilan tahlil qilayotganimiz bois bu fikrlarning katta qismi ishimizga aloqador sanaladi. O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalarini tadqiq qilgan O.Jumaniyozov biror til so'zining boshqa til lisoniy qonuniyatlariga moslashishi uchun 7 ta shartni keltiradi. Ulardan biri chet so'z uni qabul qiluvchi til so'z yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi lozimligini aytadi⁴. Albatta, o'zbek onomastik fondi uchun asos bo'lgan apellyativlarning katta bir qismi yasalishida fors va arab tillari unsurlari o'zak yoki yasovchi sifatida ishtirok etadi. Ba'zan har ikkala qism tarixan o'zlashma bo'lishiga qaramay o'zbek xalqi ijodi sifatida yuzaga keladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Asardagi apellyativi eroniy tillarga mansub onomastik birliklarni o'z xususiyatlariga ko'ra dastlab uch guruhga ajratish mumkin bo'ladi:

1. Eroniy xalqlar tomonidan eroniy tillarda nomlangan obyektlar.
2. Boshqa xalqlar tomonidan biror obyektini eroniy tillarga mansub apellyativlar asosida nomlash.
3. Biror obyektini har ikkala xalq vakillarining qaysi biri tomonidan nomlanganini aniqlash imkoni bo'lmagan, eroniy tillar yoki turkiy va eroniy tillar materiallari ishtiroki bilan mushtaraklikda yuzaga kelgan nomlar.

Har ikkala xalq qadimdan o'zaro juda mustahkam ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy aloqada yashagani uchun apellyativi eroniy tillarga mansub onomastik birliklarning katta qismi uchinchi guruhga mansub bo'lib chiqadi.

Asarda birinchi guruhga mansub deb topilgan atoqli otlar ichida kichik bir guruhni *obod* komponentli nomlar tashkil qiladi. Masalan, *Abdolobod qal'asi* – ابدال آباد قلعه سی Razo Xuroson viloyati, Turbati Eron Jom tumani, Bolo-Jom Narobod tumani qishloq okrugiga qarashli qishloq⁵.

² Юлдашев Д.Т. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Sharq ma'rifati, 2020. – Б.181.

³ <https://www.etymonline.com/word/oxford>

⁴ Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.19.

⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Abdalabad,_Razavi_Khorasan

Asarda ikki marta tilga olingan: “Lutfalixon hazorakim, *Abdolobod qal’asining* hokimi sohib e’timodidir” (RD, 276^b). Nomning asosi sanalgan *abdol* so’zi *abdol* istilohi bilan bog’liqmi yoki biror shaxs nomiga aloqadormi, aniqlash imkoni bo’lmadi. Chunki, *abdol* arabchada avliyo(lar)ning tasavvufda valiylikning muayyan bir darajasiga erishgan guruhi. Keng ma’noda avliyolar, shayxlarni ham anglatadi⁶. “Farhangi Dehxudo”da *abdol* rijol ul-g’aybda avtoddan keyin joylashgan yetti iqlimga rahnamolik qiladigan yetti valiy sifatida talqin qilinadi hamda ularning biri o’rniga ikkinchisi yetishib chiqib, bu muvozanat doimiy saqlanishi haqida gapiriladi.

Navro’zobod qal’asi نوروزآباد قلعه سى hozirgi *Navruzobod* – Eronning Razaviy Xuroson viloyatining Chenaron tumaniga qarashli qishloq⁷. Asarda to’rt marta tilga olingan: “*Navro’zobod qal’asining* havolisini lashkargoh etdilar” (272^a).

Purvarobod qal’asi پرورآباد قلعه سى Bir marta tilga olingan: “*Purvarobod qal’asi* suyining saqqosi” (273^a).

Ro’zobod – shu hududdagi qishloq: “*Ro’zobod qal’asi* suyining saqqosi...” (RD, 277^a).

Asarda qo’llangan eroniy tillar asosli ayrim antroponimlar eponim sifatida ishlatilgan. Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Anishervon // *No’shiravon* – Xusrav Anushervon. *Anushervon* // *No’shirvon* انوشیروان (501-579) pahlaviycha *nōšag-ruwān* “o’lmas qalb egasi” ma’nosini anglatadi. Erondagi sosoniy podshoh (531-579-yillarda). Anishervon zamonida Eron gullab-yashnadi. Uning davri Eron tarixiga doir adabiyotlarda “oltin asr” deb tilga olinadi⁸. Uning naqadar odil bo’lgani ko’plab ilmiy va badiiy manbalarda tilga olinadi. Jumladan, Alisher Navoiy uning odilligi bois, o’zi ma’jusi bo’lsa ham, do’zaxga tushmasligi, lekin musulmon bo’lmagani sababli jannatga ham kira olmasligini yozadi:

Anushirvon garchi kofir edi,
Vale adl zotida zohir edi.
O’run garchi kofirg’a do’zaxdurur,
Aning addini o’rni barzahdurur.
Agar kufr rizvon sori qo’ymadi,

Vale adl niyron sori qo’ymadi.

Ul o’tgandin ar ming yil andozadur,
Adolatdin ovozas tozadur⁹.

RDda ham Anushervon aynan adolat timsoli sifatida tilga olinadi.

Adlda, uylaki, *Anishervon*,
Mamlakat ahlini qilib xandon (RD, 288^b).
Agar adlini ko’rsa *No’shiravon*,
O’z adlini zulm qilg’ay gumon (RD, 250^b).

Afrosiyob – “Shohnoma”da shu nom bilan tilga olingan turkiy xalqlar qahramoni Alp Er To’nga.

Kim *Afrosiyob-u* kim Isfandiyor,
Na ish qildilar dahr aro ixtiyor (RD, 249^a).

Bahrom – Mirrix (Mars) sayyorasining nomi. Jang timsoli. Quyida keltiriladigan “Yetursa qo’lin qahr samsomig’a, Tushar vahmi jon charx *Bahromig’a*” (RD, 250^b) baytida *Bahrom* kosmonim sifatida tilga olingani ayon. Bayt mazmuni “Qo’lini qahr shamshiriga yetkazgan paytda falakdagi Bahrom (Mirrix)ning joniga vahima tushadi”. “Dilovarliqda qul ollida Rustam, Bahodirliqdadir *Bahrom* chokar” (RD, 264^a) baytida esa uni antroponim sifatida ko’ramiz. Ogahiyning asar nihoyasidagi saj’ va tajnis orqali ifodalangan xulosalari ildizini, bizningcha, Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarining Bahrom ibn Yazdijurd (ya’ni “Haft paykar” qahramoni Bahrom) qissasi xulosasida bergan.

Chu shoh o’ldi olamg’a Bahrom Go’r,
Jahonda may-u ayshdin soldi sho’r.

Ajal sharbati ayshini sho’r etib,

Chiqordi jahondin yerin go’r etib¹⁰ –
baytlaridan izlash kerak.

Umuman, fors adabiyotida Bahrom va uning Go’r laqabi orqali tajnis hosil qilingan misralar ko’plab uchraydi. Jumladan, Umar Xayyomga nisbat berilgan ruboiylaridan biri:

On qasrki, Jamshid dar u jom girift,
Ohu bacha kardub rubah orom girift.
Bahromki, *Go’r* megiriftiy hama umr,
Diydiki, chiguna go’r Bahrom girift¹¹.

⁶ <https://hadis.uz/terms?query/абдол>

⁷ <https://fa.wikipedia.org/wiki/نوروزآباد>

⁸ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Ануширван>

⁹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.126.

¹⁰ Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б.221.

¹¹ Ал-рамс. // www.Mehrarhkam.com

Isfandiyor “Avesto”da *Spandudota*, pahlaviyda *Spandiyod* yoki *Spandiyot*, arab manbalarida *Spandarmoz* shaklida uchraydi va “pok aql, idrok yaratuvchisi yoki spanta (ezgulik) baxsh qiluvchi” degan ma’noni anglatadi. “Avesto”da *Spandudota* nomli tog‘ ham tilga olinadi. Xurosondagi bu tog‘ nomi “Shohnoma”da *Spand* tarzida tilga olinadi. Isfandiyor – qadimiy eron rivoyatlarida mashhur pahlavon, Gushtaspning o‘g‘li nomi. U haqda “Avesto”da qisman, “Shohnoma”da esa mufassal hikoya qilinadi¹². RD ham Isfandiyorning eponim sifatidagi ma’nosi “Avesto” va “Shohnoma”da bayon qilingan voqealar mazmuni bilan bog‘liqdir: “Emas qizsa hangomayi korzor, Birining harifi yuz *Isfandiyor*” (RD, 257^a).

Narimon tarkibidagi *-mon* komponenti ajralmas holatga kelib qolgan nomlardan biridir. *Narimon* nomi “Avesto”da *Nair manavi* shaklida berilgan bo‘lib, bu tarkib “mardona o‘yli, mardona fikrlovchi”, boshqacha aytganda, “jasur, pahlavon” degan ma’noni beradi. “Avesto”da bu nom alohida antroponim emas, balki Gershaspning sifatlaridan biri bo‘lib kelgan. Keyinchalik esa *Narimon* yoki *Niram* shaklini olgan¹³. “Shohnoma”da esa *Narimon* Gershaspning otasi bo‘lib, alohida antroponim sifatida zikr etilgan.

“Riyoziy ud-davla”da *Narimon* nomi uch o‘rinda uchraydi. Har uchala o‘rinda ham *Som* nomi bilan birga zikr etilgan. *Som* “Shohnoma”da *Narimon*ning farzandi sifatida talqin qilingan. “Avesto”da esa *Som Sāma* shaklida bo‘lib, shaxs emas, balki urug‘-xonadon nomidir¹⁴. “Somi *Narimondin* akmal sanab, ...” (RL, 291^a)

Rustam – pahlaviyda *Rodastahm*, *Rostahm*, forsiyda رستم. Qadimgi forsiydagi *Raydastaxma* – kuchli, buquvvat so‘zidan¹⁵. Tadqiqotlarda *Rustam* va *Suhrob* haqidagi rivoyatning osetin (nart), german va kelt qahramonlik afsona va rivoyatlari bilan umumiy jihatlari borligi qayd etiladi. Shuningdek, rus folklor qahramoni *Eruslan Lazarevich*ning nomi va ba’zi hikoyalari *Zolizarn*ing o‘g‘li *Rustamga*

borib taqaladi¹⁶. Bu haqda O.G‘afurov ishlarida ham qayd etiladi¹⁷.

*Rustam*ning mashhur laqabi *Tahamtan*dir. Bu so‘z “qahramon” ma’nosini beradi: Asardagi “*Tahamtan* razm vaqti *Rustamdek*, ...” (RD, 288^b) deyilganda *tahamtan* ham lug‘aviy birlik, ham onomastik birlik sifatida iyyom hosil qilgan.

Faridun – *Traetaona* (“Avesto”da *Ēraētaona*, pahlaviyda *Frēdōn*, fors tilida فریدون, tojikcha *Faridun* // *Faredun*)¹⁸ – Eron mifologiyasi qahramoni, Peshdodiylar sulolasidan bo‘lgan podshoh, dunyoni uch o‘g‘li o‘rtasida taqsimlagan. U arablarni Eronidan quvib chiqarish bilan mashhur bo‘ldi. Bu mifonimning apellyativ asosi “Shohnoma”da “ajdaho qotili” ma’nosini ifodalaydi. “Veda”larda u *Vritra* ajdahosining zabt etuvchisi *Trita* obraziga yaqin¹⁹. “Bari muknat ichra *Faridun* kebi” (RD, 265^b).

Daragiz qo‘rg‘oni – chegarada joylashgan hududlardan biri: “*Daragiz* xarobasining kunjida muxtafiy erdi...” (277^b)

Darozob nomi ikki mustaqil so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, aynan “uzun suv (havzasi)” degan ma’noni anglatadi: “Ro‘zobod qal’asi suyining saqqosig‘akim, *Darozobg‘a* mashhurdir” (RD, 277^a).

“*Dastgird* – Markaziy Erondagi shahar *Ishafon* bo‘stoniga qaraydi. Burxori Meyme shahristoniga tobe”²⁰. Hozirda aholisi 20000 ga yaqinlashib qolgan bu shahar o‘sha paytda qal’a bo‘lgan. Asarda uch marta tilga olinadi: “*Jilagon* darbandidinkim, *Dastgird* qal’asining sharqiy jonibida voqe’dur” (RD, 297^a).

XULOSA. Asarda apellyativi eroniy tillarga mansub birliklarni uch guruhga ajratib tahlilga tortdik. Ayrim onomastik birliklar tarkibi arabcha va forsiy; forsiy va forsiy; turkiy va forsiy asoslar tashkil topishi ham ko‘p kuzatiladi. Asardagi apellyativi eroniy tillarga oid onomastik birliklar tahlili ham turkiy va eroniy tillarining bir-birlariga

¹² Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2006. – Б.55.

¹³ مازندرانی حسین شهید فرهنگ شاهنامه (نام کسان و جاها) بلخ بنیاد نساپور ۱۳۸۸. ص ۷۱۹

¹⁴ مازندرانی حسین شهید فرهنگ شاهنامه (نام کسان و جاها) بلخ بنیاد نساپور ۱۳۸۸. ص ۳۸۶

¹⁵ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Рустам>

¹⁶ Еруслан Лазаревич. [Мифологический словарь](#) / Гл. ред. Е. М. Мелетинский. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.287.

¹⁷ Гафуров А. Имя и история: об именах арабов, персов, таджиков и тюрков. Словарь. – М.: Наука, 1987.

¹⁸ Хидр // [Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона](#): в 86 т. – СПб., 1890–1907.

¹⁹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Траэтаона>

²⁰ <https://www.google.com/search/> دستگرد

samarali ta'sirini ko'rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I. – СПб. 1960.
2. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том I. – СПб. 1893.
3. Vamberi. “O‘ba” va “qal’a” so‘zlari haqinda (aynan) // Sho‘ro, 1911 №3.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000.
5. Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1.
6. Bulatov S.S. Ranshunoslik.– Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, 2009.
7. Юлдашев Д. Атокли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: 2021.

